



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAX'SUS TA'LIM VAZIRLIGI
A. QODIRIY NOMIDAGI JIZZAX DAVLAT
PEDAGOGIKA INSTITUTI**



**CHET TILLARINI O'RGATISHNING TURLICHA
YONDASHUVLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 2021 yil 1-iyun

**Proceedings of the International Scientific-Practical
Conference**
**DIFFERENT APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE
TEACHING: PROBLEMS AND SOLUTIONS**
2021 June 1

Jizzax 2021

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAX'SUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**CHET TILLARINI O'RGATISHNING TURLICHA
YONDASHUVLARI: MUAMMO VA YECHIMLAR**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2021 yil 1-iyun

**Proceedings of the International Scientific-Practical
Conference**

**DIFFERENT APPROACHES TO FOREIGN LANGUAGE
TEACHING: PROBLEMS AND SOLUTIONS**

2021 June 1

Jizzax 2021

матнларнинг пайдо бўлиши, таржимани илмий ва мантий баҳолашга, таржиманинг ўрнини белгилашга эътибор қаратилди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Белинский В.Г. В сб.: “Русские писатели о переводе” . Л.,1960. С.206-207.
2. Дружинин А.В. В сб.: “Русские писатели о переводе” Л.,1960. С.192.
3. Гоголь Н.В. В сб.: “Русские писатели о переводе” . Л.,1960. С.191.
4. Левин В.Д. Об историзме в подходе к истории перевода. В сб: “Мастерство перевода”. 1962. М.1963. С. 392.
5. Пушкин А.С. О литературе. М., 1962. С.28.

TIBBIY BIRLIKLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN TOPONIMLAR

Navro`zova Muyassar G`aybullayevna

Buxoro viloyati Xalq ta'limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazi. Pedagogika, psixologiya va ta'lim texnologiyalari kafedrasida o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada toponimika va tibbiyotning o`zaro uyg`unligi aks etgan bo`lib, kasalliklar asosida shakllangan joy nomlari tadqiq doirasiga olingan. Shuningdek, maqolada kasalliklarning kelib chiqishi, toponimik joylar haqida to`xtalib o`tilgan. Toponimik joylarning nima uchun kasallik nomi bilan atalganligi izohi ham keltirib o`tilgan. Asosan, maqolada O`zbekiston toponomiyasiga oid joy nomlari o`rinolgan bo`lib, toponimning qayerda joylashganligi haqida ham ma`lumot bor.

Kalitsa`zlar: toponim, kasallik, onomastika, onuma, tibbiyot, qo`tir, moxov, filkasalligi

Toponimika (yunoncha topos- joy, onima - nom) - toponimlarni, geografik nomlarni o`rganadigan fan. Toponimika muayyan tildagi geografik nomlarni to`plash, ularning rivojlanish, o`zgarish tendensiyalarini, areallarini aniqlash, nomlarning muhim leksik- semantic, Grammatik xususiyatlarini yoritish, toponimik lug`atlar tuzish, joy nomlari transkripsiyasi singari muammolar bilan shug`ullanadi. Toponimlar til lug`at tarkibining bir qismi bo`lib, til qonuniyatlariga bo`ysunadi; shungako`ratoponimikatilshunoslikfanlariqatorigakiradi. Biroq joy nomlari boshqa so`zlardan farq qiladi va muayyan hududda tarkib topadi, binobarin geografik qonuniyatlar, tushunchalar va atamalarni (reylefshakllari, o`simlik va hayvon nomlarini, qazilma boyliklarni) aks ettiradi; shu jihatdan toponimika geografiyaning ham ajralmas qismidir. Toponimlar uzoq yashaydi, ularda har xil tarixiy voqealar, tarixiy shaxslarning nomlari, xalq, elat, qabila, urug` nomlari aks etgan bo`ladi; shu nuqtai nazardan toponimika tarixfanlari bilan ham bog`liq. Ularda xalqimizning urf-odati, madaniyati, ijtimoiy hayoti aks etadi. Toponimika joy nomlari va ularning kelib chiqishi tarixi, tarkibini o`rganganligi tufayli u tarix, tilshunoslik, geografiya, etnografiya va boshqa bir qator fanlar bilan o`zaro chambarchas bog`liq. Mazkur maqolada esa, toponimikaning yana bir fan, tibbiyot bilan aloqasi haqida so`z yuritimiz.

Qadim zamonlardan inson hayoti, uning sog`ligini saqlash, kasalliklarning oldini olish dolzarb masalalardan biri bo`lib kelgan. Tibbiyot (meditsina, tabobat) ana shunday masalalar bilan shug`ullangan. Kasallik – bu ichki va tashqi faktorlar oqibatida inson organizmida yuz beradigan patologik jarayon sanaladi. Kasalliklarning turlari juda ham ko`p bo`lib, ularning kelib chiqishi va davolanish usullari ham turlichadir. Shunday kasalliklar borki, ularning nomi

bilan toponimlar ham nomlangan. Kasallik nomlari bilan toponimlarning nomlanishida bir qator sabablari bor:

- Kasallikning yuqumli ekanligi;
- o`sha joining shifobaxshligi bilan;
- kasallik belgilari bilan toponimning o`xshashligi;
- o`sha kasallik bilan kasallangan insonlar yashaganligi tufayli;

Bularga quyidagilar misol bo`la oladi:

Qo`tirrabot[1,23]–Qishloq nomi bo`lib, Buxoro viloyatida joylashgan. Qo`tir kasalligi bilan kasallanganlar ushbu hududda istiqomat qilishgan. *Qo`tir* –invasion teri kasalligi; qo`tir kanalar (qarang:qichima kanalar) qo`zg`atadi. Qo`zg`atuvchilar odamga, asosan, bemordan yoki uning buyumlari (mas. sochiq, kiyim-kechak, ko`rpa-to`shak) orqali o`tadi.

Qo`tirbuloq[2,15]–Ushbu buloq Buxoro viloyatining Vobkent tumanida joylashgan bo`lib, qo`tir kasalligi bilan kasallanganlar shu yerda davo topishgan.

Qo`tirtosh[5,54]–tog`li balandlik, o`ydim-chuqur joy nomi.

Qutirgansoy[1,111]– Toshkent shahrining Ko`kcha dahasi mahallaridan biri. Qutir–virus qo`zg`atadigan o`tkir yuqumli kasallik. Alomatlari: tomir tortishi, falajlik, hiqildoq va nafas muskullarining spazmi. Quturish kasalligi qadimdan ma`lum, odamlar uni suvdan cho`chish kasalligi deb ham atashgan. Kasallik odamga hayvon, asosan, it, mushuk va boshqa hayvonlar tishlaganda yoki so`lagi teri yuzasiga tushganda yuqadi.

Moxovguzar [1,111]–Toshkent shahrining Ko`kcha dahasi mahallaridan biri. Moxov kasalligi bilan chalinganlar istiqomat qilishgan. Moxov (arabcha,maxv- yo`q qilish yoki chetlatish) – butun organizmni, xususan, teri, nerv sistemasi hamda ichki a`zolari zaharlaydigan surunkali infeksiyon kasallik.

Moxov qishloq[1,21]–Qashqadaryo viloyatidagi qishloq nomi.

Zangiston viloyati– “Hududul-olam” asarida keltirilgan qadimgi viloyat. O`simliklarda zamburug` keltirib chiqaradigan kasallik. Kasallangan o`simlikning bargi, poyasi va qisman mevasida zarg`aldoq, keyinchalik jigarrang spora hosil bo`ladi.

Devona Buva maqbarasi [3,143]–Namangandagi me`moray yodgorlik. Forscha so`z bo`lib, telba, aqlsiz degan ma`nolarni anglatadi. Aqldan ozgan, esi past, telba, savdoyi odam.

Kalqishlog`i [1,83]–qishloq nomi. Odamda soch to`kilishi, sochning siyraklanishi bilan bog`liq kasallik. Tibbiyotda trioxologiyada o`rganiladi.

Afg`onqishlog`i [1,83]–Farg`ona viloyati Qo`qon shahri yaqinidagi qishloq. Teri kasalligi bo`lib yiringli yara, chipqon. To`qima yoki a`zolarining shikaslangan joyida yiring to`planishi.

Jinnidaryo [5,26]–Qashqadaryoning o`ng Surxondaryoning chap qirg`og`i. Suvining miqdori yong`inga bog`liq bo`lganligi uchun o`zanini o`zgartirib turadigan, qirg`oqlarini yuvib zarar keltiradigan yozda qurib qoladigan daryo. *Ruhiy kasallik* atamasi ostida asab tizimlaridagi buzilishlar oqibatida paydo bo`luvchi, jamiyatda o`rnashib qolgan me`yorlardan keskin chiquvchi xatti-harakatlarga olib keluvchi kasallik tushuniladi. Ruhiy kasallikka chalinish ko`pincha bemorning xulq-atvorining o`ziga ham, atrofdagi odamlarga ham xavfliligi bilan xarakterlanadi. Faqat o`tkir holatlarga emas, balki nimo`tkir va surunkali kechuvchi ruhiy buzilishlar, hattoki remissiya holatlari ham bemor tomonidan xulq-atvorining kutmaydigan harakatlari bilan kuzatiladilar va shoshilinch yordamga muhtoj bo`ladilar.

Tentaksoy [5,61]- o`z o`zanini o`zgartirib turadigan, oshib-toshib oqadigan suv, soy. Seniroz kasalligi (tentak, jinni)–inson miyasi faoliyatining buzilishi bilan bog`liq ruhiy kasallik.

So'galmasjid [1,105]–Toshkent Shayxontohur dahasi mahallaridan birining nomi. Teri saratoni kasalligi bo'lib, xalq tilida“ ag`az” deb ham yuritiladi. Aslida so'galni virus paydo qiladi. U virus sifatida odamdan odamga yuqadi. Uning virusi tanadagi ko'zga ko'rinmas jarohatlarga tushib qo'l berib ko'rishish, bitta idishdan ovqatlanish, suvichish, suv havzalarida cho'milish oqibatida yuqadi.

Quyunchiq–Amudaryo o'zanlari orasidagi tepalik nomi. *Epilepsiya* (yun. –tutaman), tutqanoq, quyunchiq– bosh miyaning surunkali kasalligi; ko'pincha tirishish, hushdan ketish, bemor shaxsining o'zgarishi, ayrim hollarda aqliy qobiliyatning susayib borishi bilan kechadi. Bosh miyaning tutqanoq tutishiga nisbatan tug'ma yoki turmushda orttirilgan o'ta moyilligi, shuningdek, nasliy tug'ma nuqsonlar, bosh va orqa miyaning yuqumli kasalliklari, jarohatlari, tug'ruq chog'idagi noxushliklar, endokrik omillar, nogahon qo'rquv sabablidir.

Tibbiy birliklar bilan ifodalaniladigan toponimilarni o'rganish va tadbiq qilish til tarixi va nazariyasi uchun katta ahamiyatga ega. Ko'pgina joy nomlari juda qadimiydir. Ibtidoiy yozma yodgorliklarda qayd qilingan geografik nomlarni keyinroq uchraydigan shakllari va hozirgi talaffuzi bilan solishtirib, tilning lug'at tarkibida, so'z qatlamining dastlabki shaklida ro'y bergan o'zgarishlarini bilib olishimiz mumkin.

Yuqorida keltirilgan toponimik joylar kasallik nomlari asosida shakllangan. Toponimik joylarning nomlanishida tibbiyotga oid birliklar aynan kasallik nomlari bilan bog'liqlikni ko'rishimiz mumkin. Xulosa qilib shuni aytish kerakki, tibbiyot va tilshunoslik(toponimika) o'zaro bog'liq hodisa. Respublikamiz va dunyoning boshqa mamlakatlarida ham tibbiy birliklar bilan bog'liq joy nomlari uchrab turadi. Maqolaning maqsadi ham ayni shu masala edi, ya'nikim kasallik nomi bilan bog'liq joy nomlarini topib, ularni o'rganish va amaliyotga tatbiq qilishdan iborat edi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. S.Qorayev. “Toponimika”. O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, Toshkent-2006, 320-bet.
2. S. Abdurahmonov.” Toponomika va geografik atamashunoslik”, Namangan-2010, 37-bet.
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi,” Davlat ilmiy nashriyoti”. Toshkent -1996.
4. P. G'ulomov, M. Mirakmalov.” Toponomika va geografik terminshunoslik”, Toshkent – 2005.
5. T.Nafasov, V.Nafasova. “O'bek toponimlarining izohli lug'ati”, “Yangiasravlodi”. Toshkent, 2007, 81-bet.
6. Khaydarova N. A., Islomov B. The Importance of Teaching English for Specific Purposes and its Origin //Достижения науки и образования. – 2017. – №. 5. – С. 46-47.
7. Khaydarova Nodirabegim Akhtamovna Advantages of role play technique in teaching speaking in EFL classes //Достижения науки и образования. 2018. №5 (27).URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/advantages-of-role-play-technique-in-teaching-speaking-in-efl-classes>
8. Gaybullayeva N. I. The usage of euphemisms in the speech of doctors. International journal of research in humanities, Arts and literature. – 2018.
9. Gaybullayeva Nafisa Izatullayevna Semantic and structural variation of euphemisms // Научные исследования. 2018. №6 (26). URL:<https://cyberleninka.ru/article/n/semantic-and-structural-variation-of-euphemisms>